

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA MEDIATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING METODIK VAZIFALARI

Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

dilbarxon632@gmail.com

+998976253888

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarni kommunikativ yondashuv asosida mediatorlik faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, metodik yo‘nalishlari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritib berilgan. Mediatsiya jarayonida muloqot madaniyati, empatik tinglash, konstruktiv bahs yuritish hamda konfliktlarni ijtimoiy-pedagogik boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda pedagogik hamkorlik, dialogik muloqot va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mediatorlik, kommunikativ yondashuv, pedagogik hamkorlik, konfliktologiya, muloqot kompetensiyasi, sotsiopsixologik vositachilik.*

Zamonaviy ta’lim jarayoni pedagog shaxsidan nafaqat puxta kasbiy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi ijtimoiy faollik, muloqot madaniyati va shaxslararo munosabatlarni boshqarish bo‘yicha yetuk kompetensiyalarni ham talab qilmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi ko‘pincha turli xarakter, ehtiyoj va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki nizoli vaziyatlarni barqaror va insonparvar yo‘l bilan hal eta oladigan mediator, yo‘naltiruvchi, tinglovchi va psixologik qo‘llovchi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Bu holat bo‘lajak pedagoglarni kommunikativ yondashuvga asoslangan mediatorlik faoliyatiga tizimli tayyorlashning ilmiy-amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Mediatsiya tushunchasi ijtimoiy-pedagogik kontekstdagi konfliktlarni konstruktiv muloqot orqali yumshatish, tomonlarning manfaatlarini inobatga olgan holda murosaviy yechim ishlab chiqish jarayonini anglatadi. Bo‘lajak o‘qituvchining mediator sifatida shakllanishi, avvalo, uning kommunikativ kompetensiyasi, hissiy-intellektual barqarorligi, empatiya, tolerantlik va bahsni boshqarish qobiliyatlari rivojlanganligiga bog‘liqdir. Bu esa o‘quv jarayonida maqsadga yo‘naltirilgan metodik tashkiliy ishlarni talab qiladi.

Kommunikativ yondashuv pedagogikaning shunday yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxsning nutqiy faoliyati, psixologik tayyorgarligi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi faolligi va muloqotga kirisha olish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy konsepsiyani ifodalaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonida asosiy e’tibor bilimni tayyor holda yetkazishdan ko‘ra, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida mazmunli, maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotni tashkil etishga qaratiladi. Shaxsning o‘rganish jarayonida faol kommunikator sifatida ishtirok etishi uning tafakkuri, nutqi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

L.S.Vygotskiy o‘quv jarayonini shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish faoliyati sifatida talqin qilib, bilim muloqot jarayonida shakllanishini asoslab beradi. Vygotskiyni fikriga ko‘ra, har qanday intellektual o‘shish avvalo dialog, savol-javob, fikr almashinuvi orqali ro‘y beradi. J.Bruner esa ta’lim jarayonida o‘quvchini faollashtiruvchi madaniy-sotsial muloqot muhitining roliga urg‘u beradi. A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida esa shaxs o‘z xatti-harakatini boshqalarning tajribasini kuzatish va tahlil qilish orqali o‘zgartirishi mumkinligi ta’kidlanadi; bu esa kommunikativ jarayonning sotsial namuna sifatida harakat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. J.Hattiening tadqiqotlarida ham samarali o‘qitishning asosiy omili sifatida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi faol interaktiv muloqot e’tirof etiladi.

Kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish: o‘quvchini muloqotning faol subyekti sifatida ko‘radi; o‘rganish jarayonini hamkorlikka asoslangan faol fikrlash jarayoniga aylantiradi; suhbat, munozara, muammoli vaziyatlar, savol-javob va refleksiv tahlil orqali ta’lim mazmunining samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shu tariqa, o‘quv jarayonida kommunikativ muhitni tashkil etish nafaqat bilim o‘zlashtirishga, balki shaxsning nutqiy madaniyati, emotsional barqarorligi, bag‘rikenglik, ijtimoiy moslashuvchanlik hamda konfliktlarni ongli ravishda boshqarish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, mediatorlik faoliyatida kommunikativ yondashuvning ustuvorligi shundan iboratki, vositachi shaxs mojaroni hal etishda avvalo muloqot texnikalaridan, til orqali ta’sir mexanizmlaridan va tinglash madaniyatidan foydalanadi. Demak, kommunikativ kompetensiya mediatorning asosiy kasbiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, uning professional samaradorligini bevosita belgilaydi.

Pedagogik kommunikatsiya quyidagi jihatlarni qamrab oladi: o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida axborot almashish jarayonini tashkil etish; his-tuyg‘ular orqali ruhiy-emotsional ta’sir o‘tkazish; nutqiy ta’sir orqali o‘quvchining xulq-atvorini boshqarish. Demak, kommunikativ yondashuv bo‘lajak pedagogning mediator sifatidagi kasbiy pozitsiyasini shakllantirishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ta’lim muassasalarida mediatorning vazifasi oddiy nizolarni bartaraf etish bilan cheklanmaydi. U: konfliktning mohiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi; tomonlar manfaatlarini neytral, xolis pozitsiyadan baholaydi; empatik tinglash orqali mojaroni kuchaytiruvchi emotsional bosimni kamaytiradi; yechim yo‘llarini birgalikda izlashga sharoit yaratadi; o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida murosas madaniyatini shakllantiradi.

Mediatsiyada shaxsning ijtimoiy-emotsional intellekti, o‘zini boshqarish qobiliyati va bag‘rikenglik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim jarayonida maxsus trening, amaliy mashg‘ulotlar, kommunikativ vaziyatlar orqali shakllanadi.

Bo‘lajak pedagoglarning mediatorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ularning kommunikativ, emotsional, ijtimoiy va konfliktologik tayyorgarligini izchil rivojlantirishni talab etadi. Mazkur jarayon o‘quv faoliyatining turli shakl va vositalarini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu asosda bir qator metodik vazifalar belgilab olinadi va ular maqsadli o‘qitish texnologiyalari yordamida amaliy ko‘rinishga keltiriladi.

Birinchidan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘lajak pedagogning mediator sifatida faoliyat yuritishi uchun muhim shart hisoblanadi. Dialogik ta’lim, munozara darslari, suhbat va trening mashg‘ulotlari orqali talabalar o‘z fikrlarini izchil, aniq va dalillangan shaklda ifoda etishni, suhbatdoshning pozitsiyasini hurmat qilgan holda muloqotni

boshqarishni, ziddiyatli vaziyatlarda til vositasida ijobiy ta’sir ko’rsatishni o’rganadi. Natijada, kelajak o’qituvchi muloqot jarayonida yetakchi, tartibga soluvchi va vositachi funksiyalarini bajarishga tayyor bo’ladi.

Ikkinchidan, empatiya va tinglash madaniyatini shakllantirish mediatorlikning psixologik asosini tashkil etadi. Rol o’yinlari, sotsiopsixologik mashqlar, refleksiv tahlil texnikalari orqali talabalar boshqa shaxsning hissiy holatini to’g’ri qabul qilish, uning ichki kechinmalariga bevosita baho bermasdan, neytral pozitsiyada tinglay olish ko’nikmalarini egallaydi. Bu esa kelajakda mojaroni keskinlashtirmasdan, aksincha uni yumshatgan holda konstruktiv muloqotga yo’naltirish imkonini beradi.

Uchinchidan, konfliktologik savodxonlikni oshirish mediatorlik faoliyatining amaliy mazmunini belgilaydi. Keys-stadi usuli, modellashirilgan mojarolar vaziyatlari va mediatsiya simulyatsiyalaridan foydalanish orqali talabalar konfliktning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari va yechim strategiyalarini mustaqil tahlil qilishga o’rgatiladi. Ushbu jarayonda ular mojaroli vaziyatda hissiy barqarorlikni saqlash, har ikki tomon manfaatlarini inobatga olgan holda muloqotni boshqarish, murosalar usullarini tanlash kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi.

To’rtinchidan, jamoada sog’lom psixologik muhit yaratish mediatorlik faoliyatining ijtimoiy natijasini ta’minlaydi. Fasilitatsiya metodlari, hamkorlik loyihalari va guruhiiy muloqot mashg’ulotlari orqali talabalar jamoada hurmat, mas’uliyat, hamjihatlik va bag’rikenglik tamoyillariga asoslangan munosabat madaniyatini shakllantiradilar. Bunday muhit o’qituvchining kelajak kasbiy faoliyatida jamoa ichki munosabatlarini boshqarish va profilaktik mediatsiyani amalga oshirish imkonini yaratadi.

Hamkorlik pedagogikasi mediatorlik kompetensiyasini shakllantirishda asosiy mexanizmlardan biri sanaladi. Talabalar guruhiiy faoliyatda: bir-birining fikrini tinglashni o’rganadi; bahs orqali kelishuvga erishish strategiyalarini egallaydi; ijtimoiy tajriba va o’zaro hurmat asosida shaxsiy pozitsiyasini madaniy tarzda himoya qila oladi. Bu esa kelajakda maktab jamoasida nizolar oldini olish va ularni ijobiy hal qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash jarayoni ularning kommunikativ, emotsional, psixologik va konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog’liq. Mediatorlik o’qituvchining kasbiy mahoratini boyitadi, shaxslararo munosabatlar madaniyatini mustahkamlaydi va ta’lim muhitida demokratik, bag’rikeng, insonparvar ruhdagi muloqot fazosini yaratadi. Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlashda kommunikativ yondashuvga tayangan holda mediatorlik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 2019. – 328 b. – B. 112–134.

2. Bruner J. Obuchenie kak process konstruirovaniya znaniya. – Moskva: Mir, 2003. – 242 b. – B. 67–91.
3. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977. – 247 p. – P. 22–48.
4. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses. – London: Routledge, 2009. – 378 p. – P. 113–146.
5. Dewey J. Demokratiya va ta’lim. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 356 b. – B. 174–199.
6. Gromova L.A. Konfliktologiya va mediatorlik asoslari. – Sankt-Peterburg: Rech, 2021. – 214 b. – B. 98–129.
7. Aripdjanova A. Pedagogik kommunikatsiya va muloqot madaniyati. – Toshkent: Fan, 2018. – 189 b. – B. 54–85.